


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr)


2019-yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 593,6 mln. AQSh dollariga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,0 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 364,1 mln. AQSh dollarga va import hajmi 229,5 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosini 134,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

### Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,2 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 61,1 % bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 % ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 49,4 % ni, boshqa davlatlar 50,6 % ni va import hajmida MDH davlatlari 22,3 % ni, boshqa davlatlar 77,7 % ni tashkil qildi.

## 2019-yil yanvar-oktabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning oktabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, sentabr oyiga nisbatan 8,1 mln. AQSh dollarga kam eksport qilindi va 30,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 16,3 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa sentabr oyiga nisbatan 3,8 mln. AQSh dollariga kamroqdir.

## 2019-yil yanvar-oktabrda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)



2019-yil yanvar-oktabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko'rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Rossiya	150,8	120,4	30,4	25,4	95,3
Xitoy	148,5	88,6	59,9	25,0	110,1
Turkiya	70,5	52,8	17,7	11,9	73,7
Qozog'iston	63,4	51,0	12,4	10,7	112,1
Koreya Respublikasi	56,1	17,5	38,6	9,4	143,6
Latviya	20,7	15,4	5,3	3,5	85,8
Vietnam	12,4	-	12,4	2,1	199,8
Buyuk Britaniya	7,6	-	7,6	1,3	3,5 b.
Ukraina	5,3	2,1	3,2	0,9	32,5
Eron	5,1	0,2	4,9	0,9	188,0
Qirg'iziston	4,1	2,7	1,4	0,7	114,6
Turkmaniston	3,9	0,5	3,4	0,7	2,1 b.
Germaniya	3,6	0,6	3,0	0,6	50,3

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,9 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,2 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-oktabr oylarida 59,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,1 % ga etdi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	2017-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
<b>Rossiya</b>	<b>118,4</b>	<b>158,2</b>	<b>150,8</b>
eksport	84,2	110,9	120,4
Import	34,2	47,3	30,4
saldo	50,0	63,6	90,0
<b>Xitoy</b>	<b>147,7</b>	<b>134,9</b>	<b>148,5</b>
eksport	98,0	95,6	88,6
import	49,7	39,3	59,9
saldo	48,3	56,3	28,7
<b>Turkiya</b>	<b>110,2</b>	<b>95,6</b>	<b>70,5</b>
eksport	102,3	82,5	52,8
import	7,9	13,1	17,7
saldo	94,4	69,4	35,1
<b>Qozog'iston</b>	<b>38,1</b>	<b>56,5</b>	<b>63,4</b>
eksport	36,0	46,2	51,0
import	2,1	10,3	12,4
saldo	33,9	35,9	38,6
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>25,5</b>	<b>39,1</b>	<b>56,1</b>
eksport	0,7	7,9	17,5
import	24,8	31,2	38,6
saldo	-24,1	-23,3	-21,1
<b>Latviya</b>	<b>34,8</b>	<b>24,1</b>	<b>20,7</b>
eksport	34,3	20,6	15,4
import	0,5	3,5	5,3
saldo	33,8	17,1	10,1
<b>Vietnam</b>	<b>0,6</b>	<b>6,2</b>	<b>12,4</b>
eksport	0,5	1,0	-

Davlat nomi	2017-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
import	0,1	5,2	12,4
saldo	0,4	-4,2	-12,4
<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>0,7</b>	<b>2,1</b>	<b>7,6</b>
eksport	-	-	-
import	0,7	2,1	7,6
saldo	-0,7	-2,1	-7,6
<b>Ukraina</b>	<b>8,9</b>	<b>16,4</b>	<b>5,3</b>
eksport	3,4	3,3	2,1
import	5,5	13,1	3,2
saldo	-2,1	-9,8	-1,1
<b>Eron</b>	<b>2,8</b>	<b>2,7</b>	<b>5,1</b>
eksport	2,4	0,3	0,2
import	0,4	2,4	4,9
saldo	2,0	-2,1	-4,7
<b>Qirg'iziston</b>	<b>5,2</b>	<b>3,6</b>	<b>4,1</b>
eksport	5,2	3,6	2,7
import	-	-	1,4
saldo	5,2	3,6	1,3
<b>Turkmaniston</b>	<b>0,2</b>	<b>1,8</b>	<b>3,9</b>
eksport	0,2	0,3	0,5
import	-	1,5	3,4
saldo	0,2	-1,2	-2,9
<b>Germaniya</b>	<b>2,5</b>	<b>7,3</b>	<b>3,6</b>
eksport	0,3	0,4	0,6
import	2,2	6,9	3,0
saldo	-1,9	-6,5	-2,4


## EKSPORT

2019-yil yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi 364,1 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (78,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,7 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



### Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (%)




### Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	364,1	94,6	100	179,9	108,6	100	184,2	84,0	100
<b>Paxta tolasi</b>	3,5	-	1,0	-	-	-	3,5	-	1,9
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	31,6	127,6	8,7	9,6	181,2	5,3	22,0	113,0	11,9
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	284,8	83,9	78,2	161,7	103,6	89,9	123,1	67,2	66,8
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	2,6	34,8	0,7	0,9	74,6	0,5	1,7	27,2	0,9
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	3,8	31,4 b.	1,1	0,1	116,6	0,1	3,7	301,9 b.	2,0
<b>Xizmatlar</b>	2,1	108,4	0,6	1,4	107,5	0,8	0,7	110,2	0,4
<b>Boshqalar</b>	35,7	3,1 b.	9,7	6,2	3,8 b.	3,4	29,5	3,0 b.	16,1

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati may oyida kuzatilgan.



### Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning oktabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar sentabr oyiga nisbatan 27,8 % ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 2,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 % ga o'sganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (38,4 %), safarlar (34,4 %) va transport xizmatlari (26,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.


### Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)





Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019-yilning oktabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, sentabr oyiga nisbatan 8,1 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 30,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,3 mln. AQSh dollariga etgan.



**2019-yil yanvar-oktabrida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi**  
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



**Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
(yanvar-oktabr)

2018-yil

2019-yil



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 75,1 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiyaga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y. yanvar- oktabr	2019 y. yanvar- oktabr	2018 y. yanvar- oktabr	2019 y. yanvar- oktabr	2018 y. yanvar- oktabr	2019 y. yanvar- oktabr
Rossiya	110,9	120,4	28,8	33,1	1	1
Xitoy	95,6	88,6	24,8	24,3	2	2
Turkiya	82,5	52,8	21,4	14,5	3	3
Qozog'iston	46,2	51,0	12,0	14,0	4	4
Koreya Respublikasi	7,9	17,5	2,0	4,8	6	5
Latviya	20,6	15,4	5,4	4,2	5	6
Qirg'iziston	3,6	2,7	0,9	0,7	7	7
Tojikiston	1,2	2,5	0,3	0,7	10	8
Ukraina	3,2	2,1	0,8	0,6	8	9
Iroq	2,7	2,0	0,7	0,5	9	10
Singapur	-	1,2	-	0,3	-	11

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida jami 22 456,9 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 9 202,6 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 167,4 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida 14 902,5 tonna sabzavotlar 4 769,8 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 4 719,7 tonna meva va rezavorlar 3 002,9 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 065,0 tonnaga ko'paygan.

## Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 1 169,8 ming AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 56,3 % ga o'sgan).

## Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2018-yil yanvar-oktabr			2019-yil yanvar-oktabr		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	20 663,5	3 996,7	72,7	16 805,8	6 664,1	72,4
Rossiya	1 618,8	1 055,9	19,2	4 161,9	1 548,9	16,8
Qirg'iziston	-	-	-	317,4	364,6	4,0
Bolgariya	-	-	-	66,7	310,6	3,4
Ukraina	-	-	-	21,5	101,1	1,1
Turkiya	72,0	46,1	0,8	502,6	66,0	0,7
Fransiya	-	-	-	17,5	48,6	0,5
Ruminiya	-	-	-	252,0	36,3	0,4
Turkmaniston	10,0	7,3	0,1	275,9	32,5	0,4
Xitoy	-	-	-	25,5	24,7	0,3
Polsha	-	-	-	10,1	5,2	0,1

### 2019-yil yanvar-oktabrida meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

2018-yil




2019-yil




## IMPORT

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 229,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,9 % ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (55,4 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (11,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,4 %) va xizmatlar (4,5 %) guruhlariga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



### Tovar va xizmatlar importi ulushi, (%)




### Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	229,5	109,9	100	51,3	68,7	100	178,2	132,8	100
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	12,5	136,1	5,4	12,2	135,7	23,7	0,3	151,4	0,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	25,6	81,6	11,2	2,6	68,1	5,0	23,0	83,5	12,9
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	8,3	169,4	3,6	2,8	2,2 b.	5,4	5,5	150,8	3,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	2,0	36,9	0,9	0,5	18,7	0,9	1,5	52,9	0,9
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	127,3	134,3	55,4	11,7	67,6	22,9	115,6	149,2	64,8
<b>Xizmatlar</b>	10,3	94,6	4,5	1,6	45,5	3,1	8,7	117,5	4,9
<b>Boshqalar</b>	43,5	83,4	19,0	19,9	53,5	39,0	23,6	157,8	13,2

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari sentabr oyida kuzatilgan.



### Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning oktabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar sentabr oyiga nisbatan 52,8 % ga kamaygan.


### Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y. yanvar-oktabr	2019 y. yanvar-oktabr	2018 y. yanvar-oktabr	2019 y. yanvar-oktabr	2018 y. yanvar-oktabr	2019 y. yanvar-oktabr
Xitoy	39,3	59,9	39,3	26,1	2	1
Koreya Respublikasi	31,2	38,6	31,2	16,8	3	2
Rossiya	47,3	30,4	47,3	13,2	1	3
Turkiya	13,1	17,7	13,1	7,7	5	4
Vietnam	5,2	12,4	5,2	5,4	7	5
Qozog'iston	10,3	12,4	10,3	5,4	6	6



Buyuk Britaniya	2,1	7,6	2,1	3,3	10	7
Latviya	3,5	5,3	3,5	2,3	8	8
Eron	2,4	4,9	2,4	2,1	9	9
Turkmaniston	1,5	3,4	1,6	1,5	11	10
Ukraina	13,1	3,2	13,1	1,4	4	11
Italiya	1,2	3,2	1,2	1,4	12	12


### Xizmatlar importi tarkibi, (%)



Xizmatlar importi hajmi 10,3 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94,6 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (81,3 %) hamda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (10,1 %)dan iborat bo'ldi.

## 2019-yil yanvar-oktabrida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi


(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar oktabr oyida, sentabr oyiga nisbatan 3,8 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 5,3 mln. AQSh dollarga kam va xizmatlar 1,5 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan.

## Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-oktabr)

2018-yil



2019-yil



2019-yilning yanvar-oktabr oylarida respublikaga 45 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Vietnam hamkor davlatlaridan jami import hajmi 171,3 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 74,6 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

### Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	VIETNAM	TURKIYA	ROSSIYA	KOREYA RESPUBLIKASI
mln. AQSH doll.	55,5	12,2	11,0	7,2	6,7
O'tgan yilga nisbatan, %	169,7	2,4 b.	2,1 b.	163,5	149,6
Ulushi, %	43,6	9,6	8,6	5,7	5,3

### Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	XITOIY	ROSSIYA	LATVIYA	QATAR
mln. AQSH doll.	12,6	1,7	1,6	1,5	1,5
O'tgan yilga nisbatan, %	72,8	83,8	76,1	3,9 b.	-
Ulushi, %	49,3	6,7	6,3	5,9	5,7

**Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar**

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	UKRAINA	TURKMANISTON
mIn. AQSH doll.	8,4	2,8	0,5	0,4
O'tgan yilga nisbatan, %	138,0	6,3 b.	28,3	-
Ulushi, %	67,1	22,5	3,9	3,6

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-82-06**